## SAVODXONLIK BAYRAMI.

Sinf bayramona bezatilgan. Sahnaga bayramona kiyingan 2 nafar boshlovchi o'g'il va qiz bola musiqa sadosi oastida kirib kelishadi.

1. **Boshlovchi:** Assalomu alaykum, aziz mehmonlar.
   Otalar – u onalar, qalbi go'yo ummonlar
   Assalom ustozlar, siz mehribonlar
   Assalom sizlarga, ey mehribonlar.
2. **Boshlovchi:** Salomdan boshlamoq xalqim odati.
   Salomli bolaning bor saodati.
   Salomlashmoq insonga xos go'zal bir oadt
   Nasib bo'lsin berchamizga baxtu saoat.
1. **Boshlovchi:** Yana bir bor Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, hurmatli ustozlar, jonkuyar ota – onalar – u, asaldan shirin bolalar.
2. **Boshlovchi:** bugun biz ushbu bilim dargohiga, jonajon mektabimizga barchangizni quchoq ochib chorladik.
1. **Boshlovchi:** buning boisi bor, albatta. Sababi kechagina maktabga o'zining ilk qadamini qo'ygan 1 – sinf o'quvchilari o'zlarining eng ajoyib tantan bayramlarini nishonlash arqfasida turibdilar. 4 oygina muqaddam bu o'quvchilar yurakda hayajon bilan jonajon maktabimiz ostonasini bosib o'tishgan edi.
2. **Boshlovchi:** Mana shu o'tgan qisqa muddatda ular anchagina mehnat qilishdi va bugungi kunda alifbodagi barcha harflarni tanib,o'qish, yozish, hisoblash ko'nikmalarini qgalladi. Shu sababdan bugungi tantanani "Savodxonlik bayrami" deb atadik. Bayramimizga xush kelibsiz, aziz mehmonlar. Aziz bolajonlarimizning shodligiga sherik bo'ling. Marhamat.
1. **Boshlovchi:** Bugun katta tantana
   Savodxonlik bayrami
   Doim bo'lsin an'ana
   Bilimdonlik bayrami.
2. **Boshlovchi:** Bolalarning ko'zida
   O'ynar quvonch, hayajon

Savodxonlik muborak,
Ko’zlar nuri, bolajon.

(Sho’x kuy va raqs ijro etiladi).

1. **Boshlovchi:** Tugab borayotgan 2011 yil mehribon yurtboshimiz I.A.Karimov tominidan “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik” yili deb ataldi. Bizning 1 – “A” sinf o’quvchilari ham aynan shu yili maktab ostonasiga qadam qo’ydik.
2. **Boshlovchi:** Zero, mustaqil yurtimizga nafaqat jismonan sog’lom, aqlan yetuk, ko’ngli zavq – shavqqa to’la bo’lgan, qalbida ona vataniga, jonajon yurtiga mehr qo’ygan, bilimga chanqoq avlod kerak. Shu sababli biz bugun davramizga “Bilimlar mamlakatidan” hurmatli mehmonlarni taklif etganmiz. 1 necha daqiqalardan so’ng davramizga bilimlar mamlakatidan hurmatli mehmon tshrif buyurishadi.

1. **Boshlovchi:** Bilimlar mamlakati
Mo’jiza she’rga kon.
O’zin baxtli sanar
Unga kirgan har inson

Mehmonlarin kutamiz
Dono, burro so’zlashar
Bizlar quloq tutarmiz

2. **Boshlovchi:** Ilm – fan qudratini
Ko’rish mumkin u yerda
Bilimlarni egallang
Bilim qolmaydi yerda.

**2 – boshlovchi:** Kelaqolgin mehmonlar
Davramizga marhabo
Bilimdon mehmonlarga
Deymiz ming bor tasanno

**1 – Boshlovchi:** Bilimlar mamlakatin

(Bilimlar mamlakatidan 29 harf osgan bolalar kirib kelishadi).

“A”
“A” harfiman azaldan
Alifboning avvali
Aytsam kuch adolatda
Aqli a’lo afzali.

“B”
Baquvvat, bardam, botir,
“B” harfi bo’laman.
Bilimdonlarga balli
Bundan kuchga to’laman.

“D”
Dovrug’im dostonlarda
“D” harfiman dastyorman
Donolar durdonasi
Dilga dardkash, do’st – yorman.

“E”
Ertakchi “E” harfiman
Erkatoyim eshitkin
Ertaklar tinglab zehning
Ertak charxlab pishitgin.

“F”
Fazilatim fahmlab
Foydamni bilganlar ko’p
“F” harfiman fidoiy
Filday bardoshliman xo’p.

“G”
“G” harfi gul giyohman
Go’zal gullar timsoli
Gullaganda gulbog’lar
Go’yo go’dak misoli.

“H”
“H” harfman hamisha
Har qadamda hamrohman
Hikmat, hadis, hikoya
Hushyor hamida ogohman.

“I”
Ilimga intil izlan
Ishlashga toping imkon
“I” harifiman istagim
Ibratli bo’lgin inson.

“J”
“J” harifiman jarangli
Jozibador va jo’shqin
Jonimga jo joylaganman
Jonajon vatan mehrin.

“K”

Kamina kamtarin “K”
Kamsuqum bo’l ko’p
dema!
Kelajaging kamoling
Kurash, intil, pand yema!
“L”
“L” harfiman labbaylab
Labimda lazzatli bol
Laylo, Lobar, Lolaman
Lafzim bor izzatim bor.
“M”
“M” harifiman
mag’rurman
Maqtovim tushgan tilga
“Mard maydonda
sinalar”
Mehmatim manzur elga.
“N”
Nomim nasibam ulug’
“N” harifiman nonim but
Noshukur, nodon
bo’lmang
Niholsan o’zingni tut.
“O”
“O” man olam meniki
“Oltin olma duo ol”
Ota – ona, aftob – oy,
Odob, olqish olib qol.
“P”
“P” harifiman paxlovon
Polvon oshga pazanda
Puxta pishiq o’zimga
Pishib chiqdim qozonda.
“Q”
“Qoyil qolmang, qarang”
“Q” harifi quvvatiman
Qo’shilsa – chi qo’lga –
qo’l
Qanchalar qudratliman.
“R”
“R” harfiman rahimdil
Rostgo’yman rizqim
halol
Ranjitma ota – onang
Rozi qilib rehmat ol!
“S”
“S” harfiman sifatim
Vaslatim xos sakkizga
Sadoqatli sirdoshman
Samimiy do’stman sizga
“T”
Turmushda “T” harfiga
Topilar turfa ta’rif
Tashakkur to’g’ri topding
Tashvish tortmagin Zarif.
“U”
Ulug’larga ustozman
Unvonimni unutmang!
“U harfi uzun unli
Umuman nafas yutmang.
“V”
“V” harifiman vazifam
Va’daga vafodorlik.
Vijdoniman Vatanning
Vujudimda bodorlik.
“X”
Xavf – xatardan xabardor
“X” man xolis xokisor
Xotira xo’p xazina
Xasislarga dunyo tor.
“Y”
“Y” harfi yo’qolsangiz
Yo’q yerdan
yo’ndiraman
Yo’l – yo’riq, yo’l
ko’rsatish
Yo’lini do’ndiraman.
“Z”
“Z” harfiman ziynatim
Zehinliman ziyrakman
Ziyo sochar zarramda
Zo’rman, zarur
kerakman.
“O’ ”
“O’ “ harfiman o’rtoqjon
O’qigan ishda o’zar
O’qib, o’rgan erinma
O’qimagan el buzar.
“G’ “
“ G’ “ harifiman
g’amxo’rman
G’olib doyim g’ayratli
G’alaba hamroh menga
G’oliblik go’yo totli.
“Sh”
Shavkatli “Sh” harfiman
Shayman sharaf
shonlarga
Shunqor, sho’x,
sharofatli
Shukur bolajonlar.
“Ch”
“Ch” harifiman chidamli
Chaqqon, chanoq
chaqinman
Chegaradan chiqmayman
Chug’urchuqqa
yaqinman.
“Ng”
Men birikma harf “ng”
Ohang, bongim rang –
barang
Zang urganda baka –
bang
So’l – u o’ngga teng
qarang.
“ ‘ “ Tutuq belgisi.
Kimning kelsa bilgisi
Menman tutuq belgisi
Vazifamda segakman
O’z o’rnimda kerakman
Yoqtiraman jo’nlikni
Ajrataman unlini
Avvalo kelgan
undoshdan

Deyishar: aql boshdan
Xavotiring bexuda
Misollar ko'pdir juda
She'r, daf'atan, sur'at
San'at, qal'a, va jur'at

Ayrim so'zlarga goh
Qilmoqni etgum ogoh
Unli tovushning ozroq
Talaffuzda cho'ziqroq
Jumlada: a'lo, Ra'no

Da'vo, Ma'suma, ma'no
Esda tuting belgimni
Bilib qo'llang o'rimni.

1. **Boshlovchi:** Biz boyadan beri "Bilimlar mamlakati"dan qanday mehmonlar kelar ekan deb o'tirgan edik U mehmonlar sizlar ekansizlar – ku, axir 1 – "A" sinf o'quvchilari ekan – ku!
2. **Boshlovchi:** Aziz o'quvchilar. Man bugun 1 necha oy ilgari ustozingiz sizni qo'llaringizdan yetaklab mana shu "Bilimlar mamlakati" ga olib brogan edi. Ushbu bilimlar mamlakatida yana qanday bilimlar egalladingiz?

1. **Boshlovchi:** Serquyosh oltin kon
Uni tanigan jahon
Mustaqil ozod bo'lgan
Ona yurt O"ZBEKISTON.

2. **O'quvchi:**
Yoshlarda bardam tetik
Mehmonga ochiq eshik
Maqolni yod olaman
Ona yurt oltin beshik

**3 – o'quvchi:** Bor mehrin ulashgan
Daryodek to'lib toshgan
Bormi mehribon yana
Jonajon ota – ona

**4 – o'quvchi:** Quchog'ida bor oftob
Berar ta'lim odob
Barchamizga sevimli
Qadrdonimiz maktab

**5 – o'quvchi:** Vatanimiz quyoshi
Sog' omon bo'lsin boshi
Yuz yoshdan oshsin yoshi
Yo'lboshchimiz Yurtboshi.

**6 – o'quvchi:** Ustozimiz debdilar
Bo'lmang sira qo'pol – qo'rs
Yaxshi bolalar bilan
Bo'ling o'rtoq ahil do'st

**7 – o'quvchi:** Bilim olsak bo'lazim
Aqillik zukko dono
Chuqur bilim o'rganib
Baholar bo'lar a'lo

**8 – o'quvchi:** Kattalarga doimo
Ko'rsataylik ehtirom
O'qish uchun doimo
Kerak bo'lar intizom.

**9 – o'quvchi:** Katta bo'lib qolamiz
O'tib yil, o'tib soat
Yeng shimarib qilaylik
Erinmasdan ko'p mehnat.

**10 – o'quvchi:** O'qiymiz davron soz
Qancha bilsak, shuncha oz
Bilim bergan o'rgatgan
Rahmat sizga chin ustoz.

(Shundan so’ng sho’x kuy raqs bo’ladi) (Raqsdan so’ng “O’zbekiston” qo’shig’I ijro qilinadi).

1. **Boshlovchi:** Yurtimizda bayramlar ko’o, to’ylar ko’p
Orzu, havas, intilishlar, o’ylar ko’p
O’zbekiston madhi yangrar taralar
Dildan kuylab jo’r bo’laylik jo’ralar.
2. **Boshlovchi:** Bugun do’stlar savodxonlik bayrami
Shodlik bilan o’tsin elim har dami
O’zbek elim bolajon el, tanti el
Xizmat qilay to’ylariga bag’lab bel.
1. **Boshlovchi:** Aziz o’quvchilar “Bilimlar mamlakati”da yana qanday bilimlar oldingiz?
2. **Boshlovchi:** Qani eshitaylikchi marhamat.

**1 – o’quvchi:** Alifbeni tugatdim
Endi o’qiy olaman
So’zlarni qo’shib birga
Juma to’qiy olaman.

**2 – o’quvchi:** Harflarni tanidim
Yetib oldim siriga
So’zlar tuzsa bo’larkan
Birin qo’shib biriga.

**3 – o’quvchi:** Qancha unli, undosh bor
Hammasini bilaman
To’plab bilim zehnimni
Sizni xursand qilaman.

**4 – o’quvchi:** A’lo o’qish vazifam
Tolmayman o’rganishdan
Olimlar ham ilimni
Boshlagan harf tanishdan

**Hammasi:** Rahmat aziz muallim
Mehringiz dilimizda
Yoshlikda olgan bilim
Nur sochar yo’limizda

(Bu o’quvchilar chiqib, boshqasi kirib keldi).

**1 – o’quvchi:** O’stirdingiz onajon
Oq yuvib, oq tarab.
Sho’x bulbulday sayrayman
Zavq bilan yayrab – yayrab.

**2 – o’quvchi:** Ichga sig’mas quvonchim
Maktabim bag’rin ochdi
Alifbejon kitobim
Oftob kabi nur sochdi.

**3 – o’quvchi:** Alifboni yod oldim
Harflar tilsim go’yo
Ona, lola, vatan, non
Mazmuni tengsiz dunyo.

**4 – o’quvchi:** Murg’ak qalbim angladi
Bitmas ustoz sehrini
Yuragimga joyladim
Vatan ona, mehrini.

(Andijon polkasi ijro etiladi)

1. **Boshlovchi:** Ma’noli shirin so’zi
Oftobday nurli yuzi
Bilmaysizmi bolalar
Qani “Alifbe” o’zi?
2. **Boshlovchi:** (Do’stlaring Alifboni)
Do’stlaring senga mushtoq
Alifbejon kel tezroq.

(Jo’r bo’lib, Alifbeni chaqiradilar)

**Alifbe kitobi:**

Eng birinchi do'stingiz
Bu men "Alifbe" bo'ldim
Savodingiz chiqarib
Maqsadimga erishdim
Men sizni sevar edim
Mehrimni berar edim
Harflarni tanitib
Ongiga quyar edim.
Bilaman siz ham emni
Yaxshi ko'rib qolgansiz
O'qib har bir sahifam
Dono bo'lib olgansiz
Xayr endi do'stlarim
Men endi kitob bo'ldim
O'qish kitobin sizga
Do'st qilib qoldirar bo'ldim.

**O'qish kitobi:**

Men "Oqshi" kitobiman
Ko'p uqish kitobiman
Sizlarga do'st bo'laman
Ongingiz oshiraman
Meni varaqlab ko'ring
Mag'zimni chaqib ko'ring
Sahifamda ne bo'lsa
Berilib o'qib ko'ring
"Alifbe" do'stim sizni
Maqtagandi ko'rayin
Gapi bilmadim yolg'on
Rostligini sinayin
Bilaman, sizlar meni
Varaqlab o'rganasiz
Yaxshi g'ayrat qilgansiz
O'qib olim bo'lasiz.

1. **Boshlovchi:** Salom o'qish kitobi. Xush ko'rdik. Seni juda hurmat qilib, yaxshi ko'rib o'rganishga so'z beramiz.
2. **Boshlovchi:** Siz bu yerda Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Al Matrudiy, hamda Al Marg'uloniylarni uchratasiz.
1. **Boshlovchi:** Ular ham bugungi bayramimizga tashrif buyurganlar. Marhamat, kutib oling. (Davraga Al Matrudiy va Al Marg'uloniy kirib kelishadi)

**Matrudiy:** - Aziz bolalar. Men Abu Mansur al – Matrudiy bo'laman. 870 – yillarda samarqandning Matrud qishlog'ida dunyoga keldim. Hadis ilmini o'rganib "Bilimlar mamlakati" dan joy oldim.

**Marg'iloniy:** Men esa Buhoriddin Marg'iloniy durman 1123 – yil 23 sentyabrda Marg'ilonda tavallud topdim. Islom dini, shariat qonunlari, fikr ilmini o'rgandim.
**Matrudiy:** Bizlarni yod etib ona yurtimizda katta to'ylar qilinayotganini ko'rib g'oyat g'oyat quvondik.
**Marg'iloniy:** - Bu to'ylarni uyushtirayotgan ustoz va ota – onangizga rahmat deymiz.
**Matrudiy:** Kelgusida aqlli, dono, ziyrak bo'linglar.
**Marg'iloniy:** Ko'p bilimlar egallanglar.
(Ular "Bilimlar mamlakati"ga kirib ketadi. Shundan so'ng yosh Alisher kirib keladi.)

**Yosh Alisher:** G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish
El anga shafiqu, mehribon bo'lmas emish
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa
Bulbulga tikandek, oshyon bo'lmas emish.

(Davraga qushcha uchib kiradi. Qushcha bo'lib sayraydi)
**Bulbullar:** Hoy bobo isming nima?
**Yosh Alisher:** Mening ismim Alisher. Sen qanday qushsan? Ayt qushcha?
**Bulbul:** men bulbul go'yoman. Hozir sen men haqimda she'r aytding. Uni kim ijod qilgan?
**Alisher:** Men ijod qilganman.
**Bulbul:** Yaxshi sge'r ekan. Sen shoirmisan? Taxallusing ne?
**Alisher:** Taxallusim yo'q.
**Bulbul:** she'ringda ajoyib kuy, navo bor ekan. Shoir bo'lsan taxallus tanla. Churq – churq. Xayr, yosh shoir.
**Alisher:** Bulbulgo'yo qiziq gap aytdi. Darhaqiqat taxllus tanlayemn. Uning kuy, havo degan so'zi menga yoqdi o'zimga Navoiy deb taxallus qo'yamen. (Bilimlar mamlakatiga kirib ketadi)
(Raqs ijro etiladi)

1. **Boshlovchi:** Aziz o'quvchilar bilimlar mamlakati sizlarga juda yoqibdi. Buning guvohi bo'ldik.
2. **Boshlovchi:** Bolajonlar endi sizlarga yana bir mehmonimiz borligini aytaylik. Bu mehmon barchamiz sevadigan quvnoq Qorbobo! (Qorboboni chaqirishadi)

**Qorbobo:** Salom aziz bolalar, ochilgan gul – lolalar, bugun bayramga sizlarni qutlash uchun qorli o'lkalarni kezib keldim, sizlarga ko'plab sovg'a salomlar keltirdim.

1. **Boshlovhi:** Bolajonlar, qani qorboboga qanday she'rlar tayyorlagansiz,
2. **Boshlovchi:** Marhamat she'rlarni tinglaymiz.

**(Davraga 4 ta o'quvchi chiqib she'r aytadi)**
**1 – boshlovchi:** Aziz bolalar, bizning yana bir mehmonjonlarimiz bor ekan.
**2 – boshlovchi:** Ular kimlar ekan, ko'raylikchi.
**Quyon:** Oppoq, momiq, jonivor
Quyonchalar bizlarmiz.
Ayoz obo aytganin
Tez – tez chaqqon qilamiz.

Saxiy o'rmon bog'rida
Dikillashib chopamiz
Bolalarga o'rmondan
Sovg'a – salom yig'amiz.
(shu payitda panadan bo'ri va tulki kirib keladi).
**Bo'ri:** Sovuq qishning kunida
Yuguramiz yelamiz
Oppoq quyonchalarni
Tutsak, yamlab qo'yamiz.
**Tulki:** Hoy o'rtoqlar men aytay
Quyon yeyish maza – da

Go'shtlari momiqqina
Yunglari ham tozada!

**Ayiq:** Nima shovqin nima to'polon. Endigina uxlagan edim, kim u mening oromimni buzgan. Hozir u bezorining ta'zirini berib qo'yaman.

Menman ayiq polvonman
As alga ko'p to'yganman
Oromim buzilmasa
Bahorgacha uxlarman.
Po'stim bor xo'p qalin
Sovuq menga pisandmas
Kimki oromim buzsa
Sira jazosiz qolmas.

**1 – boshlovchi:** Iye, xush kelibsizlar aziz mehmonlar. O'rmondan hormay – tolmay yetib keldingizmi?

**2 – boshlovchi:** Qani bobojon ko'rdingizmi? Bolajonlarning qanchalik aqilli va zukko ekanligini

**Qorbobo:** Ha aziz bolalar, juda aqilli va zukko ekanzi. Shuning uchun sizlarga sovg'alarni beraman.

**Bolalar:** (Rahmat bobojon).

**1 – boshlovchi:** Bayramingiz ko'p qiziq
Dilimiz kunday ochiq
Savodxon bolalarning
Yuzi quyoshday issiq

**2 – boshlovchi:** Shirin shaker bolalar
Gulu – jambil lolalar
Bir – biringiz tabriklang
Savodxonlik muborak

**1 – boshlovchi:** Oq sut bergan onalar
Mehribonlar otalar
Qutlaymiz sizlarni ham
Savodxonlik muborak.

**2 – boshlovchi:** O'quvchilar bosh egar
Izingiz ko'zga surar
Ustozlarni barcha qutlar
Savodxonlik muborak

**1 – boshlovchi:** Aziz mehmonlar shuning bilan bugungi bayramimiz o'z nihoayasiga yetdi.

**2 – boshlovchi:** Tashrifingiz uchun rahmat.